

2023-yilning 5-aprel kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi F.Ermanov va Belarusning O‘zbekistondagi elchisi L.Marinich o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

2023-yilning 5-aprel kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi F.Ermanov va Belarusning O‘zbekistondagi elchisi L.Marinich o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari A.Otewliyev, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi rahbari M.Kaipanov, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori M. E.Toreniyozov va Samarqand davlat veterinariya medicinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus filiali direktori A.Esimbetovlar ishtirok etishdi.

Image not found or type unknown



Uchrashuvda ta‘lim, qishloq xo‘jaligi, aloqa va axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Image not found or type unknown



Xususan, Belarus va Qoraqalpog‘iston oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida qishloq xo‘jaligi sohasida professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlashga kelishib oldilar. Tomonlar, shuningdek, chorvachilik, parrandachilik va kartoshkachilik sohasidagi aloqalarni chuqurlashtirish uchun hamkorlikni faollashtirishga kelishib oldilar. Shu bilan birga, tomonlar hamkorlikni rivojlantirish uchun yuqori salohiyat mavjudligini qayd etib, axborot texnologiyalari sohasida sheriklik aloqalarini rivojlantirish uchun barcha sa‘y-harakatlarni safarbar etishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Image not found or type unknown

